ISSN: 3060-4761
TerDPI ILMIY XABARNOMASI / SCIENTIFIC BULLETIN OF THE TerSPI / НАУЧНЫЙ ВЕСТНИК ТерГПИ
UO'K: 9:433:908
ORCID: 0000-0002-8580-4299
NAZIROV BAXTIYOR SAFAROVICH,
Tarix fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dotsent.
Denov tadbirkorlik va pedagogika instituti
E-mail: b.nazirov@dtpi.uz
USMONOV NURMUHAMMAD,
Denov tadbirkorlik va pedagogika instituti talabasi

TURONSHOHNING XATOSI: MAMLUKLARNI MISR TAXTIGA OLIB KELGAN XIYONAT VA JANGLAR

ANNOTATSIYA: Ushbu ilmiy-tarixiy maqolada, asli qul (Mamluklar) jamoasining Islom sivilizatsiyasi tarixida qanday qilib qudratli hukmdorlarga aylanganligi batafsil o'rganilgan. "Mamoliyk" so'zining lug'aviy ma'nosi va istilohiy ahamiyatidan boshlab, Abbosiylar xalifalari Ma'mun va Mu'tasim davrida O'rta Osiyo turkiy xalqlaridan harbiy xizmat uchun yollangan Mamluklarning paydo bo'lishi tahlil qilinadi. Maqola Mamluklarning maxsus tarbiya bosqichlariga – arab tili, Qur'on, fiqh ta'limi hamda chavandozlik, merganlik kabi harbiy mahoratlarni o'zlashtirish jarayoniga alohida e'tibor qaratadi.

Mazkur maqolada asosiy e'tibor, Salohiddin Ayubiy avlodlaridan bo'lgan Sulton Solih Najmiddin Ayubiy davrida ularning kuchayishi, ayniqsa, 1249-1250-yillardagi Yettinchi Salib yurishiga qarshi kurashdagi hal qiluvchi rolini yoritishga qaratilgan. Mansura va Fariskur janglarida Forsiddin Oqtoy va Rukniddin Baybars boshchiligidagi Mamluklarning Fransiya qiroli Lyudovik IX ustidan qozongan g'alabasi, ularning davlatdagi nufuzini keskin oshirgani ko'rsatilgan. Maqolaning markaziy qismi Sulton Turonshoh Ayubiyning Mamluklarning xizmatlarini inkor etib, ularni mansabdan chetlatishga urinishi natijasida yuzaga kelgan siyosiy xatoga bag'ishlangan. Bu "xato" Mamluklar va Sultonning beva xotini Shajaratud-dur tomonidan uyushtirilgan suiqasdga olib keldi. Oqibatda, Misrdagi Ayubiylar sulolasi tugatilib, Mamluk amiri Izzuddin Oybek Turkmaniy sultonlikka ko'tarilishi bilan Mamluklar davlatining boshlanishi, ya'ni Misr taxtiga aslida qul bo'lganlarning o'tirishiga zamin yaratilganligi yoritiladi.

KALIT SO'ZLAR: *Qozvin, Mamoliykul Baxriya, Dumyot shahri, Rukniddin Baybars, Mansura shaxri, Hasankeyf shahri, Shajaratud-dur, Muiz, Akka.*

ОШИБКА ТУРАН-ШАХА: ПРЕДАТЕЛЬСТВО И БИТВЫ, ПРИВЕДШИЕ МАМЛЮКОВ НА ТРОН ЕГИПТА

АННОТАЦИЯ: Данная научно-историческая статья детально исследует, как сообщество мамлюков (первоначально рабов) превратилось в могущественных правителей в истории исламской цивилизации. Анализ начинается с этимологического значения и терминологической важности слова «Мамалик» и прослеживает появление мамлюков, набиравшихся для военной службы в основном из тюркских народов Средней Азии во времена халифов Аббасидов Мамуна и Мутасима. Особое внимание в статье уделяется специальным этапам обучения мамлюков: арабскому языку, Корану, фикху, а также военным навыкам, таким как верховая езда и стрельба из лука.

Основной акцент сделан на усилении мамлюков в период правления султана Салиха Наджм ад-Дина Айюба, потомка Салахуддина, и их решающей роли в Седьмом крестовом походе в 1249–1250 годах. Подчеркивается, что победа мамлюков, возглавляемых Фарисом ад-Дином Актаем и Рукн ад-Дином Бейбарсом, над королем Франции Людовиком IX в битвах при Мансуре и Фарискуре резко подняла их престиж в государстве. Центральная часть статьи посвящена политической ошибке султана Туран-шаха Айюбида, который попытался пренебречь заслугами мамлюков и отстранить их от должностей. Эта «ошибка» привела к заговору и убийству, организованному мамлюками и вдовой султана Шаджар ад-Дурр. В итоге, династия Айюбидов в Египте была свергнута, и на трон взошел мамлюкский эмир Изз ад-Дин Айбек ат-Туркмани. Исследование освещает, как это событие положило начало Мамлюкскому султанату — первому случаю, когда бывшие рабы заняли трон Египта.

КЛЮЧЕВЫЕ СЛОВА: *Казвин, Мамалик аль-Бахрия, город Думьят, Рукн ад-Дин Бейбарс, город Мансура, город Хасанкейф, Шаджар ад-Дурр, Муиз, Акка.*

TURANSHAH'S MISTAKE: THE TREACHERY AND BATTLES THAT BROUGHT THE MAMLUKS TO THE THRONE OF EGYPT

ABSTRACT: This scientific and historical article thoroughly examines how the Mamluk community, originally enslaved soldiers, rose to become powerful rulers in the history of Islamic civilization. It begins with an analysis of the etymological meaning and terminological significance of the word «Mamalik,» tracing the emergence of Mamluks—hired for military service primarily from the Turkic peoples of Central Asia—during the eras of the Abbasid Caliphs Ma'mun and Mu'tasim. The article places special emphasis on the Mamluks' specialized training phases, including education in the Arabic language, the Quran, Fiqh, as well as military skills like horsemanship and archery.

The core focus of this article is on the Mamluks' ascendancy during the reign of Sultan Salih Najm al-Din Ayyub, a descendant of Saladin. It highlights their crucial role in the Seventh Crusade against the Crusaders in 1249–1250. The victory achieved by the Mamluks, led by Faris al-Din Aktay and Rukn al-Din Baybars, over King Louis IX of France at the Battles of Mansoura and Fariskur significantly boosted their influence in the state. The central part of the article is dedicated to the political blunder of Sultan Turanshah Ayyubid, who attempted to diminish the Mamluks' role and sideline them, ignoring their essential service. This «mistake» culminated in an assassination conspiracy orchestrated by the Mamluks and the Sultan's widow, Shajar al-Durr. Consequently, the Ayyubid dynasty in Egypt ended, paving the way for the Mamluk Amir Izz al-Din Aybak al-Turkmani to ascend the Sultanate. The study illuminates how this event laid the foundation for the Mamluk state, marking the first time that formerly enslaved individuals took the throne of Egypt.

KEY WORDS: *Qazvin, Mamaluk al-Bahriya, Domyat city, Rukn al-Din Baybars, Mansoura city, Hasankeyf city, Shajar al-Durr, Mu'iz, Acre.*

KIRISH. Mamluklar Sultonligi XVI asr boshlarigacha Yaqin Sharqning Misr, Shom (Suriya) va Hijoz (G'arbiy Arabiston) kabi muhim hududlarini boshqargan yirik Islom davlati bo'lib, o'z davrining eng qudratli siyosiy subyektlaridan biri hisoblangan. Sultonlikning oliy hukmdori Mamluklar — asosan Kavkaz va O'rta Osiyo turkiy xalqlaridan chiqqan qul-askar tabaqasi orasidan yetishib chiqqan sultonlar edi. Bu davrda Abbosiylar xalifalari Misrda faqat nominal (ramziy) hukmdor sifatida tan olingan bo'lishsa-da, haqiqiy siyosiy va harbiy hokimiyat Mamluklar qo'lida bo'lgan.

Mamluklar Sultonligi Misrda Ayyubiylar sulolasini ag'darish orqali tashkil topgan va 1517-yilda Usmonli imperiyasi tomonidan butunlay zabt etilgan. Bu davlatning tarixi ikkita asosiy bosqichga bo'linadi, ularning har biri hukmron elitani tashkil etgan etnik guruh nomi bilan ataladi:

1.Bahriy (Turkiy) davri (1250–1382): Bu davrda asosan turkiy xalqlarga mansub Mamluklar hukmronlik qilgan.

2.Burjiy (Cherkes) davri (1382–1517): Bu davrda esa asosan Kavkazdan keltirilgan Cherkeslarga mansub Mamluklar hokimiyatda bo'lgan.

Mavzuning dolzarbligi shundaki, Mamluklar yirik harbiy-siyosiy inqirozlarni bartaraf etgan va Islom dunyosini saqlab qolgan yagona kuch edi. Sultonlikning dastlabki hukmdorlari 1250-yilda Salibchilarni mag'lub etishgan va eng muhimi, 1260-yilda Ayn-Jolut kabi hal qiluvchi janglarda mo'g'ullar ustidan g'alaba qozonib, ularning g'arbga yurishini to'xtatganlar. Bu, Ayyubiylarning Shomdagi ta'sirini butunlay yo'q qilib, Mamluklarga keng hududlarni egallash imkonini berdi. XIII asr oxiriga kelib, ular Salibchilar davlatlarini to'liq tugatdi, shuningdek, Makuriyaga (Nubiya), Kilikiyaga, Hijozga va Janubiy Anadoluga o'z hukmronliklarini yoydilar.

Sultonlik Ayn-Jolut kabi muhim janglardan so'ng mustahkamlanib, ayniqsa, An-Nosir Muhammadning uchinchi hukmronligi davrida (uzoq yillar hukmronlik qilgan) nisbatan uzoq davom etgan barqarorlik va farovonlikni boshdan kechirdi. Bu davrda sultonning katta vakolatlari qudratli amirlar tomonidan amalga oshirilgan.

Mamluklar Sultonligining Misr taxtini qul-askarlar egallagan yagona Islom davlati sifatida shakllanishi, Salibchilarga va Mo'g'ullarga qarshi kurashdagi hal qiluvchi g'alabalari, shuningdek, Mamluklar ta'sirida bo'lgan Misrning Islom sivilizatsiyasi markazi sifatidagi o'rni – bu mavzuni bugungi kunda ham Yaqin Sharq tarixi, harbiy san'at va davlatchilik rivojini tushunish uchun nihoyatda dolzarb qiladi.

ADABIYOTLAR TAHLILI VA METODLAR. Mamluklar davri tarixi uzoq va boy an'anaga ega bo'lib, dastlabki tadqiqotlar Mamluklar davrining o'zidan chiqqan Ibn Tag'ri Birdiy (Popper, 1955) va Ibn Xaldun (Fischel, 1967) kabi yirik tarixchilar asarlariga borib taqaladi. Zamonaviy g'arb va sharq akademiyasi esa mavzuni chuqur o'rganishga asosan XX asrning ikkinchi yarmida kirishdi. Ilk fundamental ishlar orasida Devid Ayalonning The Mamluk Military Society (1979) asarini alohida qayd etish mumkin; u harbiy qul tabaqasining ijtimoiy tuzilmasi va davlat boshqaruvidagi rolini tahlil qildi. Shuningdek, Peter Malcolm Holt kabi tadqiqotchilar (Holt, 1986; 2005) Salib yurishlari davri kontekstida Mamluklarning Yaqin Sharqdagi strategik ahamiyatini o'rganishga katta hissa qo'shdilar.

Keyingi bosqichlarda, tadqiqotlar Mamluklar siyosiy va harbiy tuzilmasidan tashqari, ijtimoiy-madaniy va iqtisodiy jihatlarga ham e'tibor qaratdi. Carl F. Petry (1981; 1998) va Linda S. Northrup (1998) kabi olimlar The Cambridge History of Egypt kabi fundamental to'plamlarda Mamluk sultonligining ichki mexanizmlari, jumladan, sivil elita (Petry) va Bahriy Mamluklar sulolasining konsolidatsiyasi (Northrup) masalalariga oydinlik kiritdilar. Doris Behrens-Abouseif (2007) va Nasser O. Rabbat (1995) kabi mutaxassislar Mamluklar me'morchiligini (Qohira me'morchiligi, Qal'a) tahlil qilib, ularning madaniy merosi va hokimiyatni ifodalash usullarini ochib berishdi. Bu davr manbalari Mamluklarning Salibchilar (Asbridge, 2010; Joinville, 1807) va Mo'g'ullar (Amitai, 2006) ga qarshi kurashidagi logistika va harbiy taktikani ham yoritdi.

XXI asrga kelib, Mamluklarshunoslik yangi yondashuvlar va maxsus mavzularni o'rganish bilan kengaydi. Koby Yosefning ishlari (2012; 2013) Mamlūk atamasining etnik kelib chiqishi yoki qullik statusi kabi ta'rifiy xususiyatlarini aniqlashga qaratilgan bo'lsa, Georg Christ (2012) va Amina Elbendary (2015) kabi olimlar Mamluklar davridagi savdo mojarolari, ijtimoiy noroziliklar va shariat qonunlarining amaliyotda qo'llanilishi (Stilt, 2011) kabi mavzular orqali jamiyatning kundalik hayotiga nazar tashladilar. Bu davr tadqiqotlari sultonlikning An-Nosir Muhammad davridagi burilish nuqtalari (Levanoni, 1995) va Ibn Taymiyaning iqtisodiy g'oyalari (Islahi, 1988) kabi chuqur ixtisoslashgan masalalarni o'rganish orqali mavzuga bo'lgan ilmiy qiziqishning uzluksiz ekanligini tasdiqladi.

Ushbu tadqiqot Mamluklar sultonligining tarixiy, siyosiy va ijtimoiy jarayonlarini tahlil qilishga qaratilgan bo'lib, asosan tarixiy tahlil va qiyosiy-tarixiy yondashuv metodlariga tayanadi. Manbalarni o'rganishda deskriptiv (tavsifiy) metod va narrativ tahlil qo'llanilgan holda, Mamluklarning kelib chiqishi, tarbiyasi, Salib yurishlariga qarshi kurashdagi roli hamda Turonshohga qarshi fitna orqali hokimiyatni egallash jarayoni izchillik bilan yoritiladi. O'rganish jarayonida Mamluklar davrining

o'ziga xosligi (qul-askarlarning hukmdorga aylanishi) boshqa Islom davlatlaridagi hukmron sulolalar tarixi bilan bilvosita qiyoslanib, Sulton Turonshohning xatosi sabab Mamluklar sulolasining tashkil topishi kabi muhim burilish nuqtalari siyosiy vaziyatli tahlil usuli orqali asoslanadi. Tadqiqotning manbaviy bazasi maqola muallifining o'zbek tilidagi ilmiy manbalari hamda yirik xorijiy manbalar asosida mustahkamlangan.

NATIJALAR VA MUHOKAMA. Mamluklar atamasi arabcha "Mamolik" so'zidan kelib chiqqan bo'lib, lug'aviy ma'nosi "qullar" yoki "bandalar" degan ma'noni anglatadi. Biroq, Islom tarixida "Mamluk" so'zi o'ziga xos atama (istilohiy ma'no) kasb etib, shunchaki qullarni emas, balki ma'lum bir davrda harbiy xizmat uchun xarid qilingan maxsus qullar jamoasini nazarda tutadi.

Abbosiylarning mashhur xalifalari Ma'mun va undan keyin hukmronlik qilgan ukasi Mu'tasim davrida qullar ko'p miqdorda olib kelinib, qul bozorlarida sotilgan va keyinchalik harbiy askar sifatida qo'llanilgan. Shu tariqa, Mamluklar vaqt o'tishi bilan asosiy armiya qismiga aylanib, Islom o'lkalarining bir qismida yagona muntazam qo'shin vazifasini o'tashga kirishdi.

O'rta Osiyo turkiy millatlaridan iborat qullarni askar sifatida yollab, yirik armiya shakllantirgan ilk shaxs Xalifa Mu'tasim bo'lib, uning qo'shinidagi Mamluklar soni o'n minglarga yetgan edi.

Ayubiylar davlatining asoschisi Salohiddin Ayubiyning amirlari ham mamlakatda o'z hukmronligini mustahkamlashda Mamluklar kuchiga tayanganlar va ulardan foydalanganlar. Shunga qaramay, bu davrda Mamluklarning siyosiy ta'sir doirasi cheklangan edi.

Ayyubiylar taxtiga Najmiddin Solih Ayubiy kelganida esa, uning qo'shinidan Xorazm askarlarining ajralib chiqib ketishi tufayli, Sulton Mamluklardan ko'proq harbiy kuch sifatida foydalanishga majbur bo'ldi. Shu yo'l bilan Solih Ayubiy o'z armiyasini Mamluklar hisobiga mustahkamlagani sababli, ularning davlatdagi soni va ahamiyati sezilarli darajada oshdi.

Islom olami hukmdorlari Mamluklarni asosan Movarounnahr hududidagi o'lkalardan sotib olishar edi. Bu mintaqalar, xususan, Turkmaniston va Afg'onistonning shimoliy qismlari, shuningdek, hozirgi O'zbekiston va Tojikistonni ajratib turuvchi Jayhun (Amudaryo) atrofidagi qul bozorlari hisoblanardi. Bu mintaqalarda doimiy urushlar davom etganligi sababli, qul bozorlari urush asirlari va boshqa toifadagi qullar bilan serob bo'lardi. Mazkur o'lkalarda turkiy xalqlar istiqomat qilganligi bois, Mamluklarning aksariyat qismini turkiy millatga mansub kishilar tashkil etgan.

Mamluklarning Misrdagi dastlabki guruhi Nil daryosining atroflarida istiqomat qilgan (ayrim manbalarda Nil daryosi atrofidagi hududlar "dengiz" deb atalgan). Ularning orasida Qora dengizning shimoliy qismidagi Qipchoq o'lkalaridan hamda Qozvin (Kaspiy) dengiziga yaqin Kavkaz o'lkalaridan olib kelingan qullar ko'p bo'lgan. Shuning uchun bu guruh "Mamolikul-Bahriya" (ya'ni, "Dengizlik Mamluklar") nomi bilan tanilgan.

Mamluklar chinakam askarlik salohiyatiga erishishi uchun maxsus tizimli tarbiyadan o'tkazilgan. Bu jarayon quyidagi bosqichlarni o'z ichiga olgan:

1.Birinchi bosqich (Bolalikdan voyaga yetguncha): Arab tilini bilmaydigan Mamluklarning hayotidagi ilk ta'lim arab tili bo'lgan. So'ngra ularga Qur'oni Karim o'rgatilgan. Shundan keyin barcha Mamluklarga boshlang'ich islomiy fiqh va shariat odob-axloqlari bir xil darajada berilgan. [2]

2.Ikkinchi bosqich (Harbiy mahorat): Yosh Mamluklar balog'at yoshiga yetganlarida harbiy fanlarni, jumladan, chavandozlik, merganlik va qilichbozlik kabi askariy bilimlarni chuqur o'rganishgan.

3.Uchinchi bosqich (Oliy askariy va ma'muriy tayyorgarlik): Bu oliy bosqichda ular davlat boshqaruvi ishlariga jalb qilingan. Ularga harbiy rejalar tuzish, murakkab masalalarni yechish va xatarli vaziyatlarda qaror qabul qilish o'rgatilgan. Hatto ular jang mashaqqatlari va o'lim bilan yuzma-yuz kelishga ham ruhan tayyorlanganlar [3].

Bu tarbiya bosqichlarining barchasi ularni sotib olgan rahbarlari – Sulton Solih Najmiddin Ayubiy tomonidan qattiq nazorat qilingan. Sulton o'z qullari bo'lmish Mamluklarning oziq-ovqatlari va turmush sharoitlaridan ko'ngli xotirjam bo'lishi uchun ba'zan ular bilan birga ovqatlanar va birga o'tirar edi. Butun Misr hukmdori o'z Mamluklarining sadoqatini aynan shu insonparvar xislati bilan qozongan edi.

Vaqt o'tishi bilan Mamluklarning harbiy va diniy salohiyati ortib bordi. Ular o'zlariga o'xshagan oddiy Mamluklarga sardor bo'lishdan tashqari, mansablarda pog'onama-pog'ona yuqorilab borishdi. Ularga davlat ichida katta yerlar berilishi bilan birga, armiyada katta zobit (general) hisoblangan Amir darajasigacha ko'tarilish imkoniyati yaratildi. Bu holat Mamluklarning amaldorlikka bo'lgan intilishini oshirdi. Solih Ayubiy davlatida Mamluklar yuqori lavozimlarni egalladi; armiya qo'mondonlari Mamluklardan chiqqan bo'lib, ular orasida Forsiddin Oqtoy va undan keyingi o'rinda turgan yetuk sarkarda Rukniddin Baybars bor edi.

1249-yil 12-iyun kuni Fransiya qiroli Lyudovik IX boshchiligidagi Yettinchi Salib yurishi ishtirokchilari Dumyot porti sohiliga kelib tushdi. Dumyot shahrida bo'lib o'tgan jangda musulmon qo'shinlari mag'lubiyatga uchradi va salibchilar shaharni egalladi; Amir Faxriddin Yusuf qo'l ostidagi askarlar shaharni tashlab chiqishga majbur bo'ldi. Sulton Solih Ayubiy salibchilarni to'xtatish maqsadida Dumyot va Qohira o'rtasida joylashgan

ISSN: 3060-4761
TerDPI ILMIY XABARNOMASI / SCIENTIFIC BULLETIN OF THE TerSPI / НАУЧНЫЙ ВЕСТНИК ТерГПИ

Mansura shahriga o'z qo'shinlarini to'pladi. Bu qo'shinga Forsiddin Oqtoy va Rukniddin Baybars boshchilik qildi.

Salibchilar 1249-yil 27-noyabrda Nil daryosidan o'tib, janubga – Qohira tomon yo'l oldi. Oradan ikki kun o'tib, 29-noyabr kuni Sulton Solih Ayubiy Mansura shahrida 44 yoshida vafot etdi. U Misrga 10 yildan 50 kun kamroq sultonlik qilgan edi. [4]

Asli kelib chiqishi turkiy Mamluklardan bo'lgan Sulton Solih Ayubiyning xotini Shajaratud-durr sultonning vafotini yashirib, o'g'li Turonshohga vaziyatni tushuntiruvchi maktub yubordi. O'sha paytda Turonshoh Hasankayf (hozirgi Turkiyaning Hasankeyf viloyati) shahrida hokim edi. [5, 29, 37] Shundan so'ng, Shajaratud-durr Sulton Solih Ayubiyning katta vazirlarini huzuriga chorlab, Turonshoh yetib kelguniga qadar mamlakatni Faxriddin Yusuf boshqarib turishi, shuningdek, Forsiddin Oqtoy va Rukniddin Baybarsga Mansurada jangga tayyorgarlikni davom ettirish vakolatini topshirdi.

Bu ikki sarkarda juda mukammal harbiy reja tuzib, uni Shajaratud-durga ko'rsatdi. Reja qabul qilingach, amalga oshirishga kirishildi. 1250-yil 15-fevral kuni boshlangan Mansura jangi 18-fevralgacha davom etdi va unda musulmonlar Salibchilar ustidan ulkan g'alabaga erishdi.

Salibchilar hujumidan so'ng, Turonshoh 21-fevral kuni Mansuriyaga yetib keldi va Misr sultonligini rasman o'z qo'liga olganini e'lon qildi. Mansura jangida zaiflashib, Dumyotga chekingan Salibchilar ortidan musulmon lashkari quvib bordi. Hal qiluvchi jang 1250-yil 14-aprel kuni Dumyot yaqinidagi Fariskur shahrida bo'lib o'tdi. Bu jangga yangi Sulton Turonshoh Ayubiy shaxsan rahbarlik qildi va Forsiddin Oqtoy hamda Rukniddin Baybars boshchiligidagi Mamluklarning Fransiya qiroli Lyudovik IX ni asir olishiga guvoh bo'ldi. Bu jangda salibchilardan 30 000 nafari o'ldirilib, 10 000 ga yaqin ritsarlar asirga olindi. [6,41,42]

Lyudovik IX zanjirband holatda Mansura shahriga olib kelindi va Faxriddin Ibrohim ibn Luqmonning hovlisida hibsda saqlandi. Uning ozodlik to'lovi 800 ming tilla dinor etib belgilandi; to'lovning yarmi darhol, qolgan yarmi esa keyinroq to'lanishi kerak edi. Turonshoh qolgan salibchi asirlarning hayotini musulmon asirlarni ozod qilish, Dumyotni musulmonlarga topshirish va o'n yillik sulh o'rnatish evaziga saqlab qoldi. Salibchilar Fransiya va boshqa nasroniy davlatlardan qiyinchilik bilan to'lovning yarmini yig'ib, Lyudovikni ozod qildilar va uni Akka shahriga (Salibchilar uchun Quddusdan keyingi muhim shahar) olib ketishdi.

Turonshoh Ayubiy otasining xotini Shajaratud-dur va Mamluk amirlari Forsiddin Oqtoy, Rukniddin Baybarslarning Salibchi-larga qarshi kurashdagi hamda o'zining hokimiyat tepasiga kelishidagi yordamlarini juda tez unutdi. U armiyadagi Mamluklarning rolini kamaytirishga harakat qilib, Hasankayfdan o'zi bilan olib kelgan kishilarni yuqori mansablarga tayinlash orqali yangi armiya tuzishga urindi. Mamluklarning tayanchi bo'lgan Shajaratud-durni esa, sobiq sultonning mulklarini yashirishda ayblab, tuhmat qildi. Turonshoh go'yoki erishgan yutuqlariga hech kimning yordamisiz, faqat o'z kuchi bilan erishgan, degan fikrda edi [7,18,25].

Natijada, Mamluklar va Shajaratud-dur Turonshohni yo'q qilish rejasini tuzishdi. Mamluklar nazdida qon to'kish oson masala edi; agar biror kishining xiyonat qilganiga shubha tug'ilsa, bu uni qatl etishga sabab bo'la olardi. Mamluklar tarixida ko'plab amirlar va rahbarlar xiyonatda gumonlanib qatl qilingan. Bu esa ularning o'ta jiddiy va qat'iylik bilan harbiy tarbiya olganliklarining natijasi edi.

1250-yil 9-may kuni Sulton Turonshoh Mamluklar tomonidan qatl etildi. Bu voqea Turonshoh Hasankayfdan Misrga kelganidan bor-yo'g'i 70 kun o'tib yuz berdi [8]. Turonshoh Ayubiyning o'limi Misrdagi Ayubiylar sultonligining tugashini anglatardi. Turonshohning o'ldirilishi boshqa hududlardagi Ayubiylar qalbida Mamluklarga nisbatan cheksiz adovat va qasos olish istagini uyg'otdi.

Mamluklar Ayubiylarning qasos olishga urinishlari mumkinligini yaxshi tushunishardi. Biroq, ular Misr va uning armiyasida mustahkam o'ringa ega ekanliklarini hamda Mansura va Fariskur janglaridagi g'alabaning asosiy sababchilari bo'la turib, qadrlarining pastlatilishi va vazifalaridan chetlatilishi orqali zulmga duchor bo'lganliklarini his qilishardi [9].

Bu omillar Mamluklarni Misr tarixida ilk bor bevosita hukumat boshqaruvini qo'lga olish mumkinligi haqida fikr yuritishga undadi. "Biz g'olibmiz, nima uchun saltanat bizniki bo'lmasligi kerak?" degan savol birinchi marta Mamluklarning ongiga o'tkir bir fikrdek qadaldi. Darhaqiqat, Mamluklar 868–905-yillarda hukm surgan Tuluniylar (asli farg'onaliklar) davlati, 905–935-yillarda Abbosiylar xalifaligi, 935–969-yillarda Ixshidlar davlati, 969–1171-yillarda Fotimiylar xalifaligi va 1171-yildan boshlab Ayubiylar davlatiga xizmat qilib kelgan edi [10,31,39]. Bu davrlarning barchasida (382 yil davomida) Mamluklar davlatning himoyachi zirhi vazifasini o'tab kelishgan. Shunga qaramay, ular hech qachon saltanatni o'z qo'llariga olishni xayollariga keltirmagan, faqat hukmdorlar qo'l ostida xizmat qilgan edilar.

Ular Turonshohdan so'ng bevosita hokimiyatni qo'lga kiritishni xohladilar, ammo xalq ularning boshqaruviga rozi bo'lishi lozim edi. Mamluk bo'lganlari uchun sultonlikni istagan taqdirda ham hukmronlikdan mahrum qilinishlari ehtimoli bor edi. Bu ularning oldidagi yechimsiz masala edi.

Mamluklar dastlab malika Shajaratud-durrni Misrning malikasi deb e'lon qildilar, ammo xalqning barcha tabaqalari, xususan, diniy ulamolar, mashhur shayx Izzuddin Abdusalom boshchiligida bunga qarshi norozilik bildira boshladilar. Noroziliklarni to'xtatish maqsadida Shajaratud-dur davlat boshqaruvini rasman erkak kishiga berib, amalda hokimiyatni o'zi boshqarishga qaror qildi [11].

U haqiqiy qudratli erkak sultonning hokimiyatni ayolga berib qo'ymasligini bilgani uchun, Forsiddin Oqtoy yoki Rukniddin Baybars kabi kuchli va zukko Mamluklardan birini tanlamadi. Aksincha, jangu jadaldan uzoq, ixtiloflardan holi va tinchliksevarligi bilan tanilgan Izzuddin Oybek Turkmaniyga turmushga chiqdi va uni rasman Misr sultoni deb e'lon qildi. Bu voqea 1250-yilning oktyabr oyida, ya'ni Shajaratud-durr hokimiyat tepasiga kelganidan 80 kun o'tib yuz berdi [12,17].

Natijada, Misr bir yil ichida to'rtta davlat rahbarini ko'rdi: 1) Sulton Solih Ayubiy, 2) Turonshoh Ayubiy, 3) Malik Shajaratud-durr, va 4) Izzuddin Oybek Turkmaniy [13,19].

Kelib chiqishi Mamluklardan bo'lgan Izzuddin Oybekka Misr xalqi bay'at qildi va u Sulton Mu'iz laqabini oldi. Bu voqealar Misr taxtiga Mamluklarning ko'tarilishiga sabab bo'ldi. Sulton Mu'izning o'rnini bosa oladigan qudratli shaxs Misr va Shomdagi Ayubiylar orasida yo'q edi [15,22,27].

Mu'izning saltanat tepasiga kelishidan so'ng Misrda vaziyat asta-sekin muvozanatga kela boshladi. Dastlabki rejalarga muvofiq, Shajaratud-dur parda ortidan hukm yurgizishni davom ettirdi. U Mamluk amirlari, ayniqsa Forsiddin Oqtoy va Rukniddin Baybarsni qo'llab-quvvatlar edi.

Biroq, Sulton Mu'iz Shajaratud-dur o'ylaganidek zaif emas, balki o'ta zakovatli inson bo'lib chiqdi. U xotini va boshqa Mamluk amirlaridan tashqari, yangi Mamluklardan iborat o'zining shaxsiy gvardiyasini shakllantirib, asta-sekin kuchaytirib bordi. Bu shaxsiy gvardiyaga keyinchalik Islom olamining mashhur qahramoni bo'lish peshonasiga yozilgan Sayfiddin Qutuz rahbar etib tayinlandi.

XULOSA. Xulosa qilib aytganda, Mamluklar sultonligining paydo bo'lishi Islom tarixida misli ko'rilmagan ijtimoiy-siyosiy hodisa edi. Asli turkiy va kavkaz xalqlaridan qul sifatida sotib olingan "Mamoliik"lar maxsus tizim asosida (arab tili, islomiy fiqh va harbiy mahorat) tarbiyalanib, o'ta sadoqatli va yuqori malakali jangovar kuchga aylandi. Ular Tuluniylardan tortib, Ayubiylargacha bo'lgan sultonliklarning asosiy himoyachi qatlami (davlat zirhi) vazifasini o'tadi. Ayniqsa, Sulton Solih Ayubiy davrida, Xorazm armiyasining ajralib chiqishidan so'ng, Mamluklarga tayanish kuchaydi, bu esa ularning keyinchalik hokimiyatni egallashi uchun zamin yaratdi.

Mamluklar Misr uchun hal qiluvchi janglarda, xususan, Yettinchi Salib yurishiga qarshi Mansura va Fariskur janglarida Forsiddin Oqtoy va Rukniddin Baybars boshchiligida g'alaba qozonib, Fransiya qiroli Lyudovik IXni asirga olish orqali o'zlarining buyuk salohiyatini isbotladilar. Biroq, yangi Sulton Turonshoh bu ulug' xizmatlarni e'tiborsiz qoldirib, Mamluklarni mansabdan chetlatishga va o'zi bilan olib kelgan Hasankayf guruhini ustun qo'yishga urindi. Sultonning bu xatosi Mamluklar va Sultonning beva xotini Shajaratud-durning birlashishiga olib keldi. Natijada, 1250-yil 9-mayda Turonshoh qatl etilib, Misrdagi Ayubiylar sulolasi tugatildi.

Turonshohning qatl etilishi Mamluklar orasida "G'olib biz bo'lsak, nima uchun saltanat bizniki bo'lmasligi kerak?" degan siyosiy ongni shakllantirdi. Mamluklar dastlab Shajaratud-durrni malika deb e'lon qildilar, ammo xalqning, ayniqsa, diniy ulamolarning noroziligi sababli bu qaror siyosiy tanazzulga olib keldi. Vaziyatni hal qilish maqsadida, Shajaratud-dur hokimiyatni amalda o'zi boshqarish sharti bilan, kuchli amirlarni emas, balki tinchliksevar bo'lgan Izzuddin Oybek Turkmaniyni tanlab, unga turmushga chiqdi va uni Sulton Mu'iz laqabi bilan rasman Misr sultonligiga ko'tardi (1250-yil oktabr). Bu voqea Misr tarixida Mamluklar Sultonligi hukmronligining boshlanishiga zamin yaratdi.

Mamluklar, dastlab qullikdan chiqqan bo'lishsa-da, Islomiy ta'limotlarni va harbiy ilmlarni puxta egallagan o'ziga xos elita hisoblanadi. Ular Ayubiylarning xiyonatkor avlodini yo'q qilib, hokimiyatni egallaganlari bois, keyinchalik Misr, Shom va Hijozni XV asr boshlarigacha boshqaradigan buyuk imperiyaga asos soldilar. Ushbu tadqiqot shuni ko'rsatadiki, Mamluklar o'zlarining yuksak salohiyati va strategik g'alabalari bilan bir qatorda, rahbarlarning siyosiy xatolari va amirlarning qat'iy intizomi tufayli davlat boshqaruviga ko'tarilib, Islom dunyosini Salibchilar va Mo'g'ullarning halokatli hujumlaridan himoya qilib qolishda hal qiluvchi rol o'ynagan.

Ushbu maqoladan shunday xulosaga kelish mumkinki asli qiyinchilik bilan kun kechirib, podsholar va xalifalarga qullik qilgan, qul bo'lsa ham islom ta'limotiga oid barcha ilmlarni puxta egallagan o'z xojalari uchun hatto o'limga tayyorlangan qullarni ko'rishimiz mumkin. Mazkur qullardan harbiy salohiyatga ega bo'lgan harbiy sarkardalar va davlat boshqaruvchilari chiqqanini ko'rishimiz mumkin.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI:

1.Amitai, Reuven. 'The logistics of the Mamluk-Mongol war, with special reference to the Battle of Wadi'l-Khaznadar, 1299 C.E. In Pryor, John H. (ed.). Logistics of Warfare in the Age of the Crusades. – Ashgate Publishing Limited, 2006.

2.Asbridge, Thomas. The Crusades: The War for the Holy Land. – Simon and Schuster, 2010.

3.Ayalon, David. The Mamluk Military Society. – London, 1979.

4.Behrens-Abouseif, Doris. Cairo of the Mamluks: A History of Architecture and its Culture. – Cairo: The American University in Cairo Press, 2007.

5.Binbaş, İlker Evrim. 'A Damascene Eyewitness to the Battle of Nicopolis'. In Chrissis, Nikolaos G.; Carr, Mike (eds.). Contact and Conflict in Frankish Greece and the Aegean, 1204-1453: Crusade, Religion and Trade between Latins, Greeks and Turks. – Ashgate Publishing Limited, 2014.

6.Blair, Sheila S.; Bloom, Jonathan M. The Art and Architecture of Islam. 1250-1800. – Yale University Press, 1995.

7.Christ, Georg. Trading Conflicts: Venetian Merchants and Mamluk Officials in Late Medieval Alexandria. – Brill, 2012.

8.Clifford, Winslow William. State Formation and the Structure of Politics in Mamluk Syro-Egypt, 648-741 A.H./1250-1340 C.E.. Conermann, Stephan (ed.). – Bonn University Press, 2013.

9.Cummins, Joseph. History's Greatest Wars: The Epic Conflicts that Shaped the Modern World. – Fair Winds Press, 2011.

10.Elbendary, Amina. Crowds and Sultans: Urban Protest in Late Medieval Egypt and Syria. – The American University in Cairo Press, 2015.

11.Etheredge, Laura S., ed. Middle East, Region in Transition: Egypt. – Britannica Educational Publishing, 2011.

12.Fischel, Walter Joseph. Ibn Khaldūn in Egypt: His Public Functions and His Historical Research, 1382-1406; a Study in Islamic Historiography. – University of California Press, 1967. – p. 74.

13.Garcin, Jean-Claude. 'The Regime of the Circassian Mamluks'. In Petry, Carl F. (ed.). The Cambridge History of Egypt, Volume 1. – Cambridge University Press, 1998.

14.Al-Harithy, Howyda N. 'The Complex of Sultan Hasan in Cairo: Reading Between the Lines'. In Gibb, H.A.R.; E. van Donzel; P.J. Bearman; J. van Lent (eds.). The Encyclopaedia of Islam. – 1996.

15.Herzog, Thomas. 'Social Milieus and Worldviews in Mamluk Adab-Encyclopedias: The Example of Poverty and Wealth'. In Conermann, Stephan (ed.). History and Society During the Mamluk Period (1250-1517): Studies of the Annemarie Schimmel Research College. – Bonn University Press, 2014.

16.Holt, Peter Malcolm; Daly, M. W. A History of the Sudan: From the Coming of Islam to the Present Day. – Weidenfeld and Nicolson, 1961.

17.Holt, Peter Malcolm. The Age of the Crusades: The Near East from the Eleventh Century to 1517. – Addison Wesley Longman Limited, 1986.

18.Holt, Peter Malcolm. 'The Position and Power of the Mamluk Sultan'. In Hawting, G.R. (ed.). Muslims, Mongols and Crusaders: An Anthology of Articles Published in the Bulletin of the School of Oriental and African Studies. – Routledge, 2005.

19.Islahi, Abdul Azim. Economic Concepts of Ibn Taimiyah. – The Islamic Foundation, 1988.

20.James, David. The Arab Book. – Chester Beatty Library, 1983.

21.Joinville, Jean. Memoirs of John lord de Joinville. – Gyan Books Pvt. Ltd., 1807.

22.King, David A. World-Maps for Finding the Direction and Distance to Mecca. – Brill, 1999.

23.Levanoni, Amalia. A Turning Point in Mamluk History: The Third Reign of Al-Nāṣir Muḥammad Ibn Qalāwūn (1310-1341). – Brill, 1995.

24.Nicolle, David. Mamluk 'Askari 1250–1517. – Osprey Publishing, 2014.

25.Northrup, Linda. From Slave to Sultan: The Career of Al-Manṣūr Qalāwūn and the Consolidation of Mamluk Rule in Egypt and Syria (678-689 A.H./1279-1290 A.D.). – Franz Steiner Verlag, 1998.

26.Northrup, Linda S. 'The Bahri Mamluk sultanate'. In Petry, Carl F. (ed.). The Cambridge History of Egypt, Vol. 1: Islamic Egypt 640-1517. – Cambridge University Press, 1998.

27.Petry, Carl F. The Civilian Elite of Cairo in the Later Middle Ages. – Princeton University Press, 1981.

28.Petry, Carl F. 'The Military Institution and Innovation in the Late Mamluk Period'. In Petry, Carl F. (ed.). The Cambridge History of Egypt, Vol. 1: Islamic Egypt, 640-1517. – Cambridge University Press, 1998.

29.Popper, William. Egypt and Syria Under the Circassian Sultans, 1382-1468 A.D.: Systematic Notes to Ibn Taghro

Birdo's Chronicles of Egypt, Volume 1. – University of California Press, 1955.

30.Powell, Eve M. Trout. Tell This in My Memory: Stories of Enslavement from Egypt, Sudan, and the Ottoman Empire. – Stanford University Press, 2012.

31.Rabbat, Nasser. 'Representing the Mamluks in Mamluk Historical Writing'. In Kennedy, Hugh N. (ed.). The Historiography of Islamic Egypt: (c. 950 - 1800). – Brill, 2001.

32.Rabbat, Nasser O. The Citadel of Cairo: A New Interpretation of Royal Mameluk Architecture. – Brill, 1995.

33.Shayyal, Jamal. Tarikh Misr al-Islamiyah (History of Islamic Egypt). – Cairo: Dar al-Maref, 1967.

34.van Steenbergen, Jo. 'Identifying a Late Medieval Cadastral Survey of Egypt'. In Vermeulen, Urbain; van Steenbergen, Jo (eds.). Egypt and Syria in the Fatimid, Ayyubid and Mamluk Eras IV. – Peeters Publishers, 2005.

35.Stilt, Kristen. Islamic Law in Action: Authority, Discretion, and Everyday Experiences in Mamluk Egypt. – Oxford University Press, 2011.

36.Teule, Herman G. B. 'Introduction: Constantinople and Granada, Christian-Muslim Interaction 1350-1516'. In Thomas, David; Mallett, Alex (eds.). Christian-Muslim Relations. A Bibliographical History, Volume 5 (1350-1500). – Brill, 2013.

37.Varlik, Nьkhet. Plague and Empire in the Early Modern Mediterranean World: The Ottoman Experience, 1347–1600. – Cambridge University Press, 2015. – p. 163.

38.Welsby, Derek. The Medieval Kingdoms of Nubia. Pagans, Christians and Muslims Along the Middle Nile. – British Museum, 2002.

39.Williams, Caroline. Islamic Monuments in Cairo: The Practical Guide (7th ed.). – The American University in Cairo Press, 2018.

40.Winter, Michael; Levanoni, Amalia, eds. The Mamluks in Egyptian and Syrian Politics and Society. – Brill, 2004.

41.Winter, Michael. 'The Re-Emergence of the Mamluks Following the Ottoman Conquest'. In Philipp, Thomas; Haarmann, Ulrich (eds.). The Mamluks in Egyptian Politics and Society. – Cambridge University Press, 1998.

42.Yosef, Koby. 'Dawlat al-atrāk or dawlat al-mamālīk? Ethnic origin or slave origin as the defining characteristic of the ruling élite in the Mamlūk sultanate'. Jerusalem Studies in Arabic and Islam. – Hebrew University of Jerusalem, 2012. 39: 387–410.

43.Yosef, Koby. 'The Term Mamlūk and Slave Status during the Mamluk Sultanate'. Al-Qanṭara. – Consejo Superior de Investigaciones Cientнficas, 2013. 34 (1): 7–34. doi:10.3989/alqantara.2013.001.